

Inoyatxon Nazarova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Sahna nutqi" kafedrası o'qituvchisi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: inoyatkhoneazarova@gmail.com
ORCID: 0009-0005-1491-8386*

QALBI UYG'OQ IJODKOR (LOLA ELTOYEVA IJODIGA BIR NAZAR)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, teatr va kino aktrisasi Lola Eltoyevaning aktyorlik mahorati, sahna nutqi madaniyati hamda ijodiy faoliyatida namoyon bo'ladigan kasbiy yondashuvi tahlil qilinadi. Aktrisaning teatr va kino san'atidagi ijodiy izlanishlari, obraz yaratish jarayonida aktyorlik mahoratining asosiy komponentlaridan bo'lgan nutq, ovoz, intonatsiya, talaffuz, pauza va emotsional ifoda vositalaridan foydalanish xususiyatlari ayrim sahnaviy misollar asosida kuzatiladi.

Kalit so'zlar: mahorat, sahna nutqi, sahna madaniyati, spektakl, Lola Eltoyeva, ohang, aktyor, mezansahna.

ТВОРЕЦ С ПРОБУЖДЁННОЙ ДУШОЙ (ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО ЛОЛЫ ЭЛТОЕВОЙ)

Аннотация. В данной статье анализируются актёрское мастерство заслуженной артистки Узбекистана, актрисы театра и кино Лолы Элтоевой, культура её сценической речи, а также профессиональный подход, проявляющийся в её творческой деятельности. Творческие поиски актрисы в театральном и кинематографическом искусстве, особенности использования речи, голоса, интонации, произношения, паузы и эмоциональной выразительности как основных компонентов актёрского мастерства в процессе создания сценического образа рассматриваются на примере отдельных сценических работ.

Ключевые слова: мастерство, сценическая речь, сценическая культура, спектакль, Лола Элтоева, интонация, актёр, мизансцена.

A CREATIVE SOUL AWAKENED

(A LOOK AT THE CREATIVE WORK OF LOLA ELTOYEVA)

Abstract. *This article analyzes the acting skills of Lola Eltoyeva, Honored Artist of Uzbekistan and an actress of theatre and cinema, as well as the culture of her stage speech and the professional approach manifested in her creative activity. The actress's creative pursuits in theatre and cinema, along with the specific features of using speech, voice, intonation, pronunciation, pauses, and emotional expressiveness as essential components of acting mastery in the process of creating a stage character, are examined through selected examples of her stage performances.*

Keywords: *mastery, stage speech, stage culture, performance, Lola Eltoyeva, intonation, actor, mise-en-scène.*

O'z kasbiga mas'uliyatli, har bir obrazga e'tiborli, u shunchaki sahnaga chiqmaydi, o'zbek teatr va kino san'atiga xizmat qilishdan baxt topayotgan ijodkor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Lola Eltoyeva. Uni yaqindan bilgan inson bu tariflar to'g'ri ekanini biladi va shubha qilmaydi. Sababi u kasbini hurmat qiladi, yaxshi ko'radi har bir rolga sidqidildan kirishadi. Bizningcha uning eng katta yutug'i va o'ziga xos jihati rol ajratmaydi, ya'ni u xoh komediya xoh dramatik rolda yorqin namoyon bo'ladi. Komedik asarda komik rolni qanchalik qoyilmaqom va tomoshabinga kulgili ijro etsa, dramatik holatlardagi ijrosi tomoshabin qalbiga yetib borib uni larzaga soladi.

L.Eltoyeva taniqli rejissyorlar Mark Vayl, Valijon Umarov kursida saralab olingan talabalar safida ta'lim oldi. Ilk katta roli va katta sahnadagi ijodiy faoliyatni uchinchi kursdayoq rejissyor V.Umarov sahnalashtirgan Sh.Boshbekovning "Temir xotin" komediyasi ("Qizil disketa") spektaklda Alomat roli ijrosidan boshladi, aktrisa uni maromiga yetkazib ijro etdi. Bu xulosaga kelishimizning sababi uni tomosha qilgan ustozlarimiz, spektaklni mukammal bo'lgani ayniqsa, ijrolardan to'liqlanib hamon kulib eslashlarini aytishgan. Shundan so'ng rejissyor Nabi



Abdurahmonov ham “Yulduz to‘la osmonda” spektakliga aktrisini taklif etib unga Zumrad rolini ishonib topshiradi.

Uning o‘zbekona, milliylik ufurgan tashqi qiyofasi, go‘zal qosh ko‘zining o‘ziyoq ekrandan ko‘z uzmay tomosha qilishga undaydi. Katta ekranda ilk bor, muallif va rejissyor Sharof Boshbekovning “Masxaraboz” badiiy filmda Teshaoy hamda Normurod Norqobilov asari, rejissyor Dilorom Karimovanning “Quyoshi botmaydigan yurt” videofilmida rollar ijro qildi. San’atkorlar va xalq nazariga tushdi. Bu filmlarni hali hamon yurtdoshlarimiz yoshlik, bolalik paytidagi xotiralari bilan entikib eslaydilar. L.Eltoyevaning qiziqarli ijodiy jarayoni, obrazlarining rangbarangligi, tabiiylikka yo‘g‘rilgan ijro mahorati, ular bilan bir sahnada rol ijro etib hamkorlik qilganim amaliy va nazariy jihatdan meni o‘shishga hamda kuzatuvlarim asosida ushbu maqolani yozishga undadi.



O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti "Sahna nutqi" kafedrası ustozı pedagogıka fanları bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ramz Qodirov tashabbusı bilan Izzat Sultonning Ahmadjon Meliboyev tahriri asosidagi "Iymon" spektaklini kafedra ustozları ijrosida sahnalashtirishga kirishildi. Bu xabar kafedra dotsenti L.Eltoyevani befarq qoldirmadi. O'zbek Milliy Akademik drama teatri aktrisasi uchun kafedraning spektakl qo'yishi qanchalik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin?! Biroq Lola Eltoyeva bu xabarni eshitib oq repetitsiyaning birinchi kunidayoq o'z vaqtida repetitsiya belgilangan xonada nozir bo'lishi, butun vujudi bilan xuddi birinchi marotaba katta rol topshirilgan aktrisa kabi katta ishtiyoq bilan repetitsiyaga kirishgani meni ajablantirdi.

"Asarning markazida turgan "iymon" tushunchasi insonning ichki e'tiqodi, vijdonan pokligi, hayotiy prinsiplarga sodiqligi hamda ilmiy-axloqiy mas'uliyatini ifodalovchi murakkab falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinadi" [1, 11–14-b]. Darhaqiqat, rejissyor aynan obrazlarni ifoda etishda ijrochilardan xuddi shu kabi xislatlarni anglashni, uni organganimizdek his qilishni turli misollar, vaziyatlar bilan

tushuntirdi. Xususan, Ozoda sof dil, tuyg'ulari beg'ubor ziyoli oilaning ziyoli farzandi, qo'l yetmagan nozik kapalakdek ekani ta'kidlandi. Shunga ko'ra ijroda ham soddalik, quvnoqlik yengillikni ifodalshga urindim.

Keyinroq xizmat safarlari va davlat tadbirlaridan bo'shab L.Eltoyeva repetitsiyaga keldilar va birgalikdagi sahnemizni ishlashni boshladik. Lola opa shu qadar butun vujudlari bilan ishlayaptilarki, men xuddi o'zimni ishlayotgan, umuman hech narsani his qilmayotgandek tuydim. Shu zahotiyoq ularni ijrolari domiga kirib rolni his qila boshladim. Meni to'xtatdilar: "Inoyatxon dardingiz ichingizda tashqariga chiqarmaysiz, xuddi yosh boladek xayollarda, orzularda uchib yuribsiz, meni holatinga kirmang", – dedilar.

"So'z bilan ta'sir etishdagi eng muhim qobiliyat "sukut saqlash"dir. Sukut orqali so'zlashish eng ta'sirchan nutqdir. Unda fikriy kurash, bahslashuv, janjallashish yoki murosaga kelishish mumkin" [2, 21-b]. Aynan mana shunday sukut Azizada Orifga nisbatan spektakl davomida yaqqol namoyon bo'lgan. Orif kirib kelish joyi, Aziza – L.Eltoyeva esa ichidagi g'alayonni tashqariga olib chiqmas, ammo ko'zi, harakatlari uning besaranjomligini bildirib turibdi. Biz so'zni qidirish, to'g'ri jumlaning aytish maqsadida qo'limizdagi pyesa bilan ovoramiz. Ammo Lola opa o'z holatidan chiqmaydi, eriga o'sha nigoh o'sha taqibni sukut orqali ham davom ettiryapti... Yana shunda angladim, biz so'zni izlashga urinayotgan bo'lsak ham holatni ushlashimiz hamrohlar bir-biriga munosabatni to'xtatmasligimiz kerak. Bu esa rolni ichiga tezroq kirish uni tanamiz his qilishida, asos bo'ladi. Spektakldagi er-xotin va singilning dialogi kirib-chiqish sahnasi biz akam Orif – Temur Sulaymonov bilan har kuni repetitsiyadamiz, har kuni qaytaramiz. Er chiqib ketmoqchi bo'ladi, xotini to'xtatishi kerak. Har safar T.Sulaymonovni o'sha joy yodidan chiqadi, men: "Nima bo'lishi kerak edi...", – deb kutib turaman. Lola opa: "Do'konga chiqib ketmoqchi bo'lasiz", – deb eslatadilar, hammamiz "haa...", – deb jarayonga kirishamiz. L.Eltoyeva replika "so'z"ni kutadilar, o'sha replika bo'lmasa o'zlari eslatadilar yon-verlarida kimdir chalg'itsa ham replika "so'z" yangrashi bilan uchib vaqtida joyida chiqadilar.

Hamrohlarining matnini ham yod olganliklarini tushunaman. Bu jihatdan aktrisaning xotirasi kuchli ekaniga amin bo'ldim.

Uch oy davom etgan repetitsiya jarayonlaridan so'ng o'quv teatr sahnasiga yakshanba kuni chiqdik, chorshanba spektakl premyerasi bo'lishi kerak. Sahnada kirib chiqish, mezansahna, yurish shu darajada qiyin bo'lyaptiki, bunchalar og'ir kechishi aqlimga sig'maydi. Darhaqiqat biz uch oy, uchga besh bo'lgan kichik xonada ishlaganmiz, shu sabab sahnaga ko'nikish qiyinchilik tug'dirgandir. Biroq L.Eltoyevaning yakshanba kungi repetitsiyada bo'lganliklari ayniqsa menga, katta saboq bo'ldi. Agar o'sha kuni yoki umuman spektaklda bo'lmaganlarida sahnadagi muhitga ko'nikish hosil qilishim bu qadar tez yuz bermas edi. Sababi L.Eltoyevaning sahnada erkin, yengil qadamlari, harakatlari o'ta tabiiy. Men ulardan ancha yosh bo'la turib og'ir, sekin harakat qilayotganimni tushundim. Qadamlarimni kichik, ammo tezroq yurishga, hamrohlarim qanchalik mezansahnaga noto'g'ri harakat qilib meni to'sibroq turishgan bo'lishlariga qaramay ularga moslashishga harakat qilishni boshladim. Hattoki bir safar buvini yonida turishga joy qolmadi buvimni oldi tomoniga o'tib tizzasini ushlab, tomoshabinga yonma-yon bo'lib o'tirgan holda gapirdim, bu hayotiy tabiiy harakatlarni tanam o'zi bajara boshladi. Endi men hamrohlarim menga xalaqit qilyapti noto'g'ri turganini o'ylamasdim, o'zimni sahnada qanday turishim qulayligi va tomoshabinga ko'rinishimni nazorat qila boshladim.

Yetakchi aktyor nutqi bir kun yoki bir necha oyda shakllanmaydi, uning uchun uzoq va tinimsiz mehnat kerak. Xususan jonli tabiiy nutqqa erishgan aktyorlar juda ozchilikni tashkil etadi. Ana shunday o'ziga xoslikni ushlagan holda uzoq yillar ijod qilish ham aslida yana bir tadqiqotga arziqli. Sahnada nutqi masalasida L.Eltoyevaning o'ziga xos jihati ko'p. Uning jozibador ovozi, toza talaffuzidan tashqari psixologik pauza, mantiqiy urg'udan to'g'ri joyida foydalanishi kabi ijro mahorati, obrazning ichki ruhiy holati aks ettirib yaxlit obrazni ko'z oldimizga keltiradi. Masalan "Iymon" spektaklining birinchi sahnasida Ozoda: "Har bir kunimiz ana shunday yorug' bo'lishini tiladim". Aziza: "Yaxshi tilak, ezgu umid", – deydi. Bir vaqtning

o'zida tushkun holatni saqlaydi "tilak"dan keyin lutf pauza qilib "ezgu umid"ga mantiqiy urg'u beradi. Ozoda: "Osmonning tiniqligini qarang-a?!" Aziza: "Uzoqdan qora bulut yaqinlashyapti", shu jumladan, "uzoqdan" keyin lutf pauza va xavotir aralash "qora bulut yaqinlashyapti", – deydi. Muhimi so'z shunchaki tug'ilmaydi, uni ko'radi, ya'ni ichki nigoh faol bo'lib, uni ko'rganini tomoshabin va hamroh ham biladi, ana shundan keyin so'zlaydi. Azizaning kasbi doktor, o'qimishli ziyoli o'ziga to'q, oilaparvar, eng qimmatlisi iymonli, e'tiqodli erining kirdikorlariga ko'z yumolmaydi va uni bu yo'lda tashlab ham ketmaydi. Aksincha uni yonida bo'lib uni bu jarlikdan olib chiqib ketishga urinadi. Xuddi shu dard alamda yonayotgan pok ayol obraziga xos nutq aktrisaning vazminroq shu bilan birga dadil, jonkuyar ayol ekani ovozidagi ohangida salmog' bilan so'zlashlarida ham o'z aksini topgan. Asar so'ngida, "essiz mening orzularim, umidlarim, bu yo'ldan qaytmaysiz-a?", – deb alamli so'zlashi va shahd bilan dissertatsiya tomonga yugurishi, oilasiga xiyonatni emas, balki adolat va jaholatga kurashgan e'tiqodi kuchli ayolni tasvirlagan. Orifning dissertatsiyani olmay dard alamda chiqib ketishi va buni ko'rgan Aziza o'z ichiga sig'may: "Olmadilar, Orif akaaa", – deganda quvonch, xursandchilik g'olib ayol muhabbati yurakdan otilib chiqishini kuzatamiz.



2025-yil kuz mavsumida O'zbek milliy akademik teatri tomoshabinlar talabiga ko'ra "Urush odamlari" spektaklini yana bir bor tomoshabin e'tiboriga havola etdi. Asar muallifi Nazar Eshonqul, rejissyor Asqar Xolmo'minov, rassom Flyura Gazizova. Adabiyotshunoslar tadqiqotlarning birida "Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" qissasida urush davri oddiy tarixiy fon emas, balki inson va jamiyatni ich-ichidan yemiruvchi hal qiluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Asarda davr va shaxs fojiasi o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini yuzaga chiqaradi va chuqurlashtiradi. Urush tufayli qishloq hayoti izdan chiqadi, ijtimoiy muvozanat buziladi, insoniy munosabatlar sovuqlashadi" [3, 151–153-b]. Bizningcha ham spektakl urush davridagi insonlarning ayanchli turmushlari bilan birga or-nomus, shan haqidagi dramadir. Asosiy rollarda (Lola opa meni spektaklni ko'rish uchun taklif etgan kunda) Sayyora Yunusova, Tolib Mo'minov, Avazxo'ja Qodirov, Lola Eltoyeva, Hosiyat Husanova, Vazira Yunusova va ommaviy sahnalarda teatr aktyorlar astoydil mehnat qildilar. Spektaklning maqsadi insonlarga urush davrining qiyinchiliklarini yana bir bor eslatib o'tish bilan birga insonlarning bir-birlariga bo'lgan his tuyg'ularining yuqori cho'qqilarini ham ko'rsata olgan. Ayollarning erlari vafot etishi, beva qolishlari turmushning mushtlarini bir o'zlari yelkalarida ko'tarishlari tomoshabinda ham urushga nisbatan nafrat uyg'otadi. Anzirat – L.Eltoyeva – farzandining betoblighi va uni asrab qolish uchun raisning ko'nglini olishga rozi bo'lishi tomoshabinga qattiq ta'sir qiladi. Bu aslida ojizlik emas, onaning farzandiga bo'lgan cheksiz muhabbati, uning hayotini asrashga bo'lgan intilish deb hisoblash kerakmikin. Yana bir haqiqat inson doim ham aql bilan emas, balki his-tuyg'ularga berilib yo'ldan og'ishi, aql va yurak katta kuchlar bo'lib ko'pincha bir-biriga qarshi kurashadi deyish mumkin.

Biydi momo – Sayyora Yunusova – yo'lboshchi dangal kanvoyi onaxon, qolgan yosh ayollar uning gapini ikki qilishmaydi, onaxon taxtda o'zini tutishi qad-u qomati doimo tik. Farzandlaridan qora xat kelganda ham beli bukilmaydi, ammo ko'zlaridan tirqirab yosh oqadi. Axir baribir ona...bu haqda san'atshunos Sh.Abdurasulov batafsil yoritadi. "...bir vaqtning o'zida ikki o'g'liga aza ochish

– har qanday onaning yurak-bag'ini sadpora qilishi, hayoti, ruhiyatini ag'dar-to'ntar qilib yuborishi aniq. Illo, Biydi momo ikkinchi o'g'lining o'liminida matonat, sabr-u bardosh ila qarshilaydi, ich-ichidan sitilib, qarog'i yoshga to'lgan bo'lsa-da, dushmanining ko'ziga tik boqmoqqa kuch topadi. Shu sahnada Sayyora Yunusovaning ijrosi cho'qqiga chiqadi, aktrisa ruhan abgor bo'lsa-da, irodasi, e'tiqodi sinmagan jasoratli ayol timsolini yaratadi. Uning ko'z qarashlari, yuz ifodasi, ma'noli sukutlari tomoshabinni o'yga toldiradi" [4, 26–27-b].

Rais – Tolib Mo'minov ayollarga bosh-qosh bo'lib ulardan o'z manfaati yo'lida ham foydalanadi, pinagini buzmaydi, aksincha bu kunlar unga cheksiz baxt olib kelyapti mana shu pozitsiyani ushlab turadi. Anzirat – L.Eltoevaning ijrosi psixologik holatlarga boy, murakkab sahnalardan iborat. Farzandi betobligidan boshlab uning ikki yo'ldan birini tanlashi lozimligi, farzandlariga bo'lgan cheksiz muhabbati aktrisa tomonidan aniq tasvirlanadi. Ayniqsa raisning shartiga ko'nish sahnasi va o'z-o'zi bilan suhbatlashgan sahna rejissyor tomonidan ham yaxshi topilgan sahna bo'lib, aktrisa bu holatlarni ichki kechinma bilan boyitgan. Ayniqsa uning tanasi, yoyilgan sochlari shunga mutanosib harakat va nutqi uning ijrosida tabiiy kechadi. Bu holatlarda tomoshabin butkul uning hayotiga shu vaziyatiga tushgandek u bilan birga azoblanadi. Ana shu kartinadan keyingi sahnani "talvasa" yoki "hujum" deb nomlash mumkin. Uning bu gunohini va qornidagi bolasini bilib qolgan Oydon – H.Husanova dag'-dag'asidan Anzirat talvasaga tushadi va bu yanada spektakl konfliktini kuchaytirib, tomoshabinni ushbu vaziyat qanchalar og'riqli ekanini bildiradi va ijrochilar ayniqsa L.Eltoevaning obraz bilan ruhiy uyg'unligi tabiiy ijroni yuzaga keltiradi. Bu obraz haqida san'atshunos shunday deydi: "Aktrisa qahramoni ruhiyatidagi qarama-qarshi kechinmalar, ziddiyatlarni psixologik talqinda ochib beradi" [4, 26–27-b].

Shu jihatdan ikki spektaklda L.Eltoeva asarlarning zamoni makonidan kelib chiqqan holda ikki obrazni uning dunyoqarashini orzu umidlarini turlicha ifodalaydi. Anzirat oqila ayol bo'lishiga qaramay nutqida gunohkor, yonidagilarga yalinish ulardan najot kutish ohangi bor. Obraz aybdor oxir oqibat taqdirga tan bergan

mushtipar o'jizani ko'z oldimizda paydo qilgan. "Iymon" dramasida esa zamonasining ilg'or, o'z fikriga ega, adolatli shu bilan birga o'z oilasi va turmush o'rtog'iga muhabbatli xonadon bekasi tasvirlanadi. Nutqida esa o'ziga ishonchi komil inson ayniqsa turmush o'rtog'ini qalbiga og'riq yetkazib qo'yishdan o'zini tiyadi, ammo qat'iylik ohangi yaqqol seziladi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Lola Eltoyeva ijodiy faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, rolga mas'uliyat bilan yondashuv, matnni mustahkam o'zlashtirish, sahnada chaqqon erkin harakatlanish, hamroh aktyor bilan ijodiy munosabatni doimiy ushlab turish, obraz yaratishda ichki kechinmaga tayanish kabi jihatlar uning professional ijodkor ekanini anglatadi. Kasbiy mahorat bu faqat iste'dod bilan o'lchanmaydi, doimiy mehnat, intizom iste'dodni yuzaga chiqaradi. Lola Eltoyeva ijodi misolida ta'kidlash lozimki, aktyor ijodkor faqat sahnaga tomoshabin bilan yuzma-yuz bo'lganda emas, ungacha bo'lgan repetitsiya jarayonlarida ham jiddiy munosabatda bo'lishi darkor. Bu jarayonlar aktyorni yanada rivojlantirib, ayniqsa uning nutqi shunchaki matnni aytish vositasi emas, balki obrazning ichki dunyosini tomoshabinga yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov R. "Imon" dramasini sahnalashtirishda rejissyorlik tahlili // O'zdsmi xabarlari. – Toshkent, 2026/2. – B. 11–14.
2. Qodirov R. Aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zdsmi, 2017. – 21-b.
3. Mustafayeva Yu. "Ilm-fan va innovatsiya" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Toshkent, 2026. – B. 151–153.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.2184707>
4. Abdurasulov Sh. Urush odamlarining saboqlari // Guliston. – Toshkent, 2022/1. – B. 26–27.